hududida amalda bo'lgan fuqarolik qonunchiligi normalariga muvofiq qo'llaniladi.

V. Munozarali vaziyatlarni hal etish tartibi

5.1. Mazkur Shartnomani bajarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolar va kelishmovchiliklar imkon qadar Tomonlar o'rtasida muzokara o'tkazish yo'li bilan hal etiladi.

5.2. Nizolar va kelishmovchiliklarni Tomonlar o'rtasida muzokara o'tkazish yo'li bilan hal etib bo'lmaydigan holatlarda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan kelishmovchiliklarni suddan oldin bartaraf qilish tartib-taomili amalga oshirilgandan so'ng ular O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda sudga ko'rib chiqish uchun beriladi.

VI. Fors-major holatlar

6.1. Tomonlar majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar bunday holatlar yengib bo'lmas kuch, ya'ni tabiiy ofatlar, tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda holatlar va alohida davr oqibati hisoblansa va davlatning tegishli organlari tomonidan tasdiqlansa, javobgarlikdan ozod qilinadi. Bunda mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati mutanosib ravishda ushbu hodisalar ro'y bergan muddatga suriladi.

VII. Yakunlovchi qoidalar

7.1. Ushbu Shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar faqat ular yozma shaklda rasmiylashtirilib, Tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolangandan so'ng haqiqiy hisoblanadi. Mazkur Shartnomaning barcha ilovalari uning ajralmas qismini tashkil etadi.

7.2. Tomonlarning hech biri mazkur Shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini boshqa Tomonning yozma shakldagi roziligisiz biror bir uchinchi tomonga berib yuborishi mumkin emas.

7.3. Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan. Ikkala nusxa aynan bir xil bo'lib, bir xil yuridik kuchga ega. Tomonlarning har birida mazkur Shartnomaning bir nusxasi bo'ladi.

VIII. Shartnomaning amal qilish muddati

8.1. Ushbu Shartnoma imzolangan paytdan kuchga kiradi va bir kalendar yili davomida yoki muddatidan oldin bekor qilinguniga qadar amal qiladi.

IX. Tomonlarning manzili va bank rekvizitlari

"Autsorser"	"Buyurtmachi"
Нўқиснинг Ўзбекистон Республикасининг Молия вазирлиги ҳузуридаги Давлат солиқ қўмитаси	Нўқиснинг Мирзачўл туман ҳокимлиги
Қўнғирот ДСК	Ҳокимлик кўчаси 27 уй
х/р 20208000300715338001	х/р 23402000300100001010
Қорақалпоқстан Республикасининг Давлат бюджети	и/ҳ 10002186003220701205344001
	Марказий б банки Тошкент ш.
МФО 00458257 0	ҳокимлик ИНН 200279160

QO'SHTEPA — JILOSI — CHORVASI

Бошқарма раиси Ж. Ҳамраев

директор: Х. Ҳамроев

Муҳандис: А. Ғаниев